


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**



**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI  
(Kunduzgi ta'lif uchun)**

**60112700 – “Maxsus pedagogika (surdotarjimonlik)”  
bakalavriat ta'lif yo'naliishi uchun**

**TOSHKENT – 2023**

Dastur Toshkent tibbiyot akademiyasi o‘quv-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2023-yil 10-sonli majlis bayoni.

**Tuzuvchi:** TDPU “Surdopedagogika va inklyuziv ta’lim” kafedrasi mudiri, PhD., dotsent v.b Z.N.Urunova

**Tuzuvchi:** Toshkent tibbiyot akademiyasi Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasi mudiri., psixologiya fanlari doktori., dotsent. R.N.Melibayeva

**Taqrizchi:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Surdopedagogika va inklyuziv ta’lim kafedrasi p.f.d, prof., Z.N. Mamarajabova.

## I. KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-ton qarori va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 261-ton qaroriga muvofiq ushbu dastur ishlab chiqilgan.

“60112700 – Maxsus pedagogika (surdotarjimonlik)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi Oliy ta’lim muassasalaridagi daktiologiya va imo-ishora nutqi hamda surdotarjimonlik praktikumi fanlari dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. 60112700 - “Maxsus pedagogika (surdotarjimonlik)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonda surdotarjimonlikning asosi bo‘lgan daktiologiya va imo-ishora nutqidan amaliy ish bajarib, o‘zlarining bilimlarini namoyon etadilar. Bajariladigan amaliy ishlar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

## Ijodiy imtihonlarning maqsadi va vazifalari

60112700 – Maxsus pedagogika (surdotarjimonlik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha surdotarjimonlar tayyorlash bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning daktiologiya va imo-ishora nutqi sohasida nazariy bilimlarini amaliyatda qo‘llay olishi bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy ishlar bajaradilar:

**1. Imo-ishora.** Har bir so‘zning imo-ishorasini aniq va tushunarli ko‘rsatishi, imo-ishorani qo‘llayotganda qo‘llar yelka kengligidan chiqib ketmasligi, imo-ishora segmentatsiyasiga rioya qilishlarini, ma’lum so‘zning imo-ishorasini topa olmaganda so‘zning umumiy ma’nosini yo‘qotmagan holda so‘z o‘yini orqali gapni imo-ishorada bayon qila olishlarini aniqlashdir.

**2. Daktiologiya.** Daktillanayotgan qo‘ldan gaplarni to‘liq aytib bera olishlari, gap tarkibidagi so‘zlarni joy-joyida grammatika qoidalariga rioya qilgan holda o‘qib berishlari, qo‘llar yuzning yonida, labga parallel turishini aniqlashdir.

**3. Erkin mavzu.** Abituriyent o‘zi istagan mavzuda biror bir matnni imo-ishoraga tarjima qilish, tarjima qilish jarayonida so‘zlarning imo-ishorasini aniq va tushunarli ko‘rsatib berish, so‘zdan so‘zga o‘tayotganga pauzalarga e’tibor berishi, og‘zaki nutq va imo-ishora birgalikda sinxron tarzda bayon qilishini aniqlashdir.

## III. Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

1. So‘zlarni aniq va ravon daktillay olish, so‘zning tovush tarkibiga e’tibor berish kerak. Berilgan matnni daktillayotganda daktilemlar aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Bir so‘zdan ikkinchi so‘zga o‘tayotganda kichik pauzaga rioya qilishi, qo‘llar yuzning yonida, labga parallel turishi kerak. So‘zlarni daktillayotganda og‘zaki nutq bilan bir hil tezlikda bo‘lishi kerak. Og‘zaki nutq daktilemadan oldinda yoki aksincha orqada qolmasligiga ahamiyat berish kerak.

2. Daktillanayotgan qo‘ldan gaplarni to‘liq aytib berishi kerak. Gap tarkibidagi so‘zlarni joy-joyida grammatika qoidalariga rioya qilgan holda o‘qib berishlari kerak.

3. Biron bir mavzuni imo-ishora orqali aytib berishda har bir so‘zning imo-ishorasini aniq va tushunarli ko‘rsatishi shart. Imo-ishorani qo‘llayotganda qo‘llar yelka kengligidan chiqib ketishi kerak emas. Imo-ishora segmentatsiyasiga rioya qilishlari zarur. Ma’lum so‘zning imo-ishorasini topa olmaganda gapning umumiyligi ma’nosini yo‘qotmagan holda so‘z o‘yini orqali gapni imo-ishorada bayon qila olishlari kerak.

Abituriyent jadval bo‘yicha belgilangan kunda har bir topshiriqqa 30 daqiqa vaqt davomida amaliy topshiradi.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Imo-ishora fanidan bajarilgan ishga 10 tadan so‘zning imo-ishorasini ko‘rsatib berish, daktillanayotgan qo‘ldan gapni to‘g‘ri o‘qib berish hamda erkin mavzuda matnni imo-ishorada ko‘rsatib berish va bu savollarga sinov o‘tkazuvchi komissiya a’zolari bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab ball qo‘yadilar. Har bir topshiriq bo‘yicha ballar qaydnomaga yoziladi va umumlashtiriladi.

**Mazkur yo‘nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun qo‘yiladigan maksimal ball – 93 ballni tashkil etadi,**

<b>Imo-ishora bo‘yicha</b>	<b>- 30,0 ball</b>
<b>Daktilologiya bo‘yicha</b>	<b>- 30,0 ball</b>
<b>Erkin mavzu bo‘yicha</b>	<b>- 33,0 ball</b>

#### **Imo-ishora**

<b>№</b>	<b>Savollar mazmuni</b>	<b>To‘liq javob uchun ball(har bir so‘z uchun 3 balldan )</b>
1	Yem bermoq, kutib olmoq, dilkash, qadr-qimmat, mahrum qilmoq, payqamoq, uyushma, zehni o’tkir, tabiatshunoslik, qarshi	0-30 gacha
2	Urug‘, zerikarli, musibat, matonat, vagon, jizzaki, muovin, mazmun, oddiy, aza	0-30 gacha
3	Spektakl, ta’minot, isbot, tushunmoq, jonga tegmoq, havas qilmoq, staj, taniqli, zangori, xususiy	0-30 gacha
4	Tashabbus, ozodlik, aniq, barbod bo‘lish, qiy Nash, xusumat, ataylab, egallamoq, gumon, portret	0-30 gacha
5	Spektakl, ataka, dalil, zehn, qo‘rqinchli, manzilgoh, repetitsiya, olim, imorat, to‘g‘rilamoq	0-30 gacha
6	Paydo bo‘lmoq, xulq, osayishtalik, rovon, hissa, stanok,	0-30 gacha

	odobli, alam, xalaqit bermoq, kengash	
7	Boquvchi, ilhom, qahramonlik, iloq qilmoq, xalaqit bermoq, og'irlik, odobli, tashkiliy, tajriba, mazmun	0-30 gacha
8	Ziyoli, musibat, dam-badam, tejash, qo'lansa, his, fikrlamoq, tirishqoq, holat, aviatsiya bombasi	0-30 gacha
9	Opera, zavq olish, shpion, idora qilmoq, obro'sini to'kmoq, tarjimai hol, yallig'lanish, tashviqot yurgizmoq, qo'shimcha, erta	0-30 gacha
10	Ta'sir etish, qaramoq, dilkash, biyobon, boqish, tahqirlamoq, asosiy, harbiy, terrorchilik, jasus	0-30 gacha

Imo-ishora bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ballarning umumiy miqdori – **30,0 ball**

### Daktilologiya

Nº	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Har bir yangi tug'ilgan chaqaloq Tangri haliyam bandalaridan marhamatini darig' tutmayotganidan dalolatdir	0-30 gacha
2	Hech kimsani aslo haqorat qilma! Sen ko'zga ilmagan kimsa Allohga sendan yaqinroq bo'lsa ajab emas!	0-30 gacha
3	Tirnoqqa o'tirgan holda xirillashadigan it haqida masal bor. Odamlarda ham shunday: ular yig'laydilar, lekin bu "tirnoq" dan tushishga jur'at etmaydilar.	0-30 gacha
4	Insonni yomon deb hisoblab, keyin pushaymon bo'lgandan ko'ra, uning yaxshi tomonlarini ko'rib, xato qilgan yaxshirokdir.	0-30 gacha
5	Mamalakatimiz bugungi kunda jahon maydonida o'z o'rniiga ega bo'lgan davlat sifatida kundan-kunga barcha sahalarda rivojlanib bormoqda	0-30 gacha
6	Ta'lim shunday qudratga egaki, u rivojlangan, u qadr topgan zamin kuch-qudratli, o'z mavqiyiga ega bo'ladi.	0-30 gacha
7	Xato qilish insoniyatga xos va bundan qo'rmaslik kerak, biroq qilgan xatolarimizni anglab turib to'g'rilashga xarakat qilmaslik jaholatdir	0-30 gacha
8	Inson qachonki qalbi istagan ishga bel bog'lasa muvaffaqiyat qozonishi tayin chunki bu mehnatning tagida zavq yotadi.	0-30 gacha
9	Qahva butun dunyoda istemol qilinadigan ichimlik bo'lib, uning tarkibida inson hayotiy jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kofein moddasi mavjud.	0-30 gacha
10	Erta tongda uyg'onib piyoda sayr qilish inson organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, immunitetni oshirishga nafas organlari faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.	0-30 gacha

Daktilologiya bo'yicha abituriyentlarning toplashi mumkin bo'lgan maksimal ball – **30,0 ball**

Erkin mavzu bo'yicha abituriyentlarning toplashi mumkin bo'lgan maksimal ball – **33,0 ball**

#### **V. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi**

60112700 – Maxsus pedagogika (surdotarjimonlik) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunda, har bir fandan 30 daqiqa davomida daktilologiya va imo-ishora nutqi fanidan amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 20-30 nafar abituriyentlardan iborat bo'lib, kasbiy (ijodiy) imtihon guruhlar bo'yicha o'tkaziladi.

**Imo-ishora.** Berilgan 10ta so'zning imo-ishorasini aniq va tushunarli topib ko'rsatib beriladi.

**Daktilologiya.** Daktillanayotgan qo'ldan gapni grammatik qoidalarga rioya qilgan holda aniq o'qib beriladi.

**Erkin mavzu.** Erkin mavzuda istalgan matnni imo-ishoraga tarjima qilib ko'rsatib beriladi. Ma'lum bir so'zning imo-ishorasini ko'rsata olmagan taqdirda gapning umumiy mazmunidan chetga chiqmagan holda tushunarli tarzda so'z o'yini qilish orqali imo-ishorada ko'rsatiladi.

Bajarilgan ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: imo-ishora bo'yicha ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, baholash mezoniga mos ravishda 0 (nol) balldan 30 ballgacha, daktilologiya bo'yicha ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, baholash mezoniga mos ravishda 0 (nol) balldan 30 ballgacha belgilanadi.

Fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolaridan tashkil etadi va ular shu ta'lim yo'nalishiga kadrlar tayyorlovchi kafedralar professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

Baholash kategoriyasi	Baholash mezoni	Baho
<b>1. Imo-ishora</b>		
A'lo	Berilgan 10ta so'zdan 9-10 tasini imo-ishorada aniq va tushunarli topib ko'rsatib beriladi.	30 ball
Yaxshi	Berilgan 10ta so'zdan 7-8 tasini imo-ishorada aniq va tushunarli topib ko'rsatib beriladi.	20 ball
Qoniqarli	Berilgan 10ta so'zdan 5-6 tasini imo-ishorada aniq va tushunarli topib ko'rsatib beriladi.	10 ball
Qoniqarsiz	Berilgan 10ta so'zdan 3-4 tasini imo-ishorada aniq va tushunarli topib ko'rsatib beriladi.	5 ball
<b>2. Daktilologiya</b>		
A'lo	1-urinishda gapni to'liq o'qib berish	30 ball
Yaxshi	2-urinishda gapni to'liq yoki qisman o'qib berish	20 ball
Qoniqarli	3-urinishda qisman yoki hatolikka yo'l qo'ygan	15 ball

	holda o‘qib berish	
<b>Qoniqarsiz</b>	Topshiriqni bajara olmadı	0 ball
<b>3. Erkin mavzu</b>		
A’lo	Erkin mavzuda istalgan matnni imo-ishorada matnning umumiy mazmunidan chetga chiqmagan holda hatosiz, stilistik to‘g‘ri tuzilgan gaplardan foydalangan holda ko‘rsatib berish	33 ball
Yaxshi	Tanlangan mavzuni imo-ishora orqali ifodalashda oddiy, sodda gaplardan foydalanish, umumiy qabul qilingan imo-ishoradan chetga chiqish	27 ball
Qoniqarli	Tanlangan mavzuni imo-ishora orqali ifodalashda matn mazmunini deyarli ochib bera olmaslik.	20 ball
Qoniqarsiz	Tanlangan mavzuni o‘ta qisqa, umumiy fikrda to‘liqsiz ifodalash	10 ball

## VI. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay’atiga natijalar e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o‘zining ballari haqida bo‘lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.